

G'ALLANING SO'RUVCHI ZARARKUNANDALARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abduraxmonov Diyorjon Muhammadali o'g'li
*O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot
instituti Farg'ona mintaqaviy filiali katta ilmiy xodimi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oddiy g'alla shirasi hamda katta g'alla shirasi biokologik xususiyatlari keltirilib o'tilgan. G'alla-don yetishtirishda uchrovchi hashoratlarning zarari va ularga qarshi kurashda tavsiyalar berilgan

Kalit so'z: Boshqoli don, xarorat, oddiy g'alla shirasi, katta g'alla shirasi, tuxum, yetuk zot.

BIOECOLOGICAL PROPERTIES OF SUPPRESSION PEST OF GRAIN

Abdurakhmanov Diyorjon Mukhammadali ugli
Plant Quarantine and Protection Research
Senior Research Fellow of the Fergana Regional Branch of the Institute

Abstract: This article presents the biological characteristics of common and large wheat aphids. Recommendations have been given on the harmfulness of insects encountered in grain cultivation and how to combat them.

Keywords: Cereal grain, temperature, ordinary grain juice, large grain juice, egg, mature breed

БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОСУЩИХ ВРЕДИТЕЛЕЙ ЗЕРНА

Абдурахмонова Диёржона Мухаммадали угли
Научно-исследовательские работы по карантину и защите растений
старшего научного сотрудника Ферганского регионального филиала
института

Аннотация: В данной статье приведены биологические особенности обыкновенной и большой пшеничной тли. Даны рекомендации по

вредоносности насекомых, встречающихся при выращивании зерновых, и борьбе с ними.

Ключевые слова: зерно злаковых культур, температура, сок обычного зерна, сок крупного зерна, яйцо, зрелая порода.

Oddiy g'alla shirasi boshqoli don ekinlariga zarar keltirib yashovchi va migratsiya hosil qilmaydigan (boshqa turdagi o'simliklarga ko'chmaydigan) shiralarning biridir. Bu shiralarning qanotsiz urg'ochi zotlari yaltiroq, oqish yashil rangda bo'ladi. Tanasining orqa qismida to'q yashil chiziqlari bor, bu turdagi shiralar respublikamizning barcha g'allazorlarida uchraydi. Shiralarning ochiq dalada qishki diapauzadan chiqib zarar keltira boshlash muddatini aniqlash uchun yil davomida kuzatuvlar olib bordik. Kuzatuvlarimiz davomida o'rtacha kunlik havo harorati 7-8° S bo'lganda bug'doyzorlarda shiralarning qishki diapauzadan chiqqan lichinkalari ko'rina boshladi. Harorat ko'tarilishi bilan bu zararkunandaning partenogenetik ko'payishi kuzatildi. Oddiy g'alla shirasining qishki diapauzaga ketgan tuxumlarining embrional rivojlanishini o'rganish uchun Ye.Radchenko (1991) uslubi asosida kuzda yig'ib kelingan qishlovga ketgan shira tuxumlarini termostatlarga qo'yib, ulardan necha kunda lichinka chiqishini aniqlanadi.

Katta g'alla shirasi - *Sitobion avenae* F. Katta g'alla shirasi respublikamizning barcha sug'oriladigan g'alla ekiladigan maydonlarida uchraydi. Bu hasharotning yetuk zoti 2,5-3,5 mm. kattalikda bo'ladi. Rangi yaltiroq sarg'ish-yashil rangda qorin qismida sariq dog'lari bor. Tadqiqotlarimiz davomida katta g'alla shirasi asosan bug'doy va arpa boshqolarida, bayroqcha barglarida, ayrim hollarda esa o'simlik poyasi va barglarida joylashib hayot kechirishini kuzatdik. Bu turdagi shiralarning yog'ingarchilik ko'p bo'lgan yillarda bug'doy boshqolarining qiltiqlarida joylashib oziqlanishini, yog'ingarchilik kam bo'lgan yillari boshqolarda hattoki gullarining ichiga kirib olib o'simlik tanasidan suyuqligini so'rib oziqlanishini kuzatdik. Natijada don hosil bo'luvchi to'qimalar nobud bo'lib, hosildorlikka katta zarar yetkazishi

tadqiqotlar va kuzatuvlar asosida aniqlandi. Katta g'alla shirasining bir yilda necha avlod berib rivojlanishini va urg'ochi zotlarining qancha pusht berishini aniqlash uchun izlanishlar olib bordik. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, katta g'alla shirasining qishlab chiqqan partenogenetik imagolari qulay sharoitga tushgach 3-5 kun qo'shimcha oziqlanib, tirik lichinka tug'ib ko'paya boshlaydi. Tajribalarimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, bir dona qishlab chiqqan katta g'alla shirasi tabiatda o'rtacha 29,3 kungacha yashab, shu vaqt ichida 9-10 tagacha lichinka tug'ishi mumkin. Havo harorati o'rtacha 5-10° S bo'lganda shiralarning lichinkalik davri 14-16 kungacha davom etdi. Zararkunandalarga qarshi kimyoviy usul bilan kurashish uchun o'simlik shiralari qarshi tavsiya etilgan preparatlar qo'llaniladi. Buning uchun O'zbekistonda qabul qilingan iqtisodiy zarar miqdor mezonini bo'lib quyidagi zararlangan poyada trips yetuk zoti 8-10 ta va undan ko'p bo'lsa. Kuzgi bug'doy boshhoqlari 15-20 ta, baxorgi bug'doyda esa 30-40 lichinka va yetuk zoti mavjudligi kimyoviy kurash o'tkazish kerakligini ko'rsatadi. Sug'oriladigan g'alla agrobiotsenozida boshhoqli don ekinlari shiralarning tabiiy kushandalaridan koksineellidlar, sirfid pashshalari va oltinko'zlar dominant tur sifatida ko'p uchrab, bitta lichinkasi bir kun davomida 35 tadan 250 tagacha shiralarni yakson qiladi. Boshhoqli don ekinlarida shiralar dala bo'ylab yoppasiga tarqalganda va ularning soni IZMga yetganda quyidagi kimyoviy preparatlarning birortasi bilan ishlov o'tkazish tavsiya etiladi: kinmek, 5 % e.k. (0,2 l/ga); fyuri, 10 % e.k. (0,3 l/ga); sipermetrin, 25 % e.k. (0,3 l/ga); sumi-alfa, 5 % e.k. (0,3 l/ga); buldok, 2,5 % e.k. (0,5 l/ga); siperfos, 55% e.k. (0,5 l/ga); talstar, 10 % e.k. (0,5 l/ga); nurell-D, 55 % e.k. (1,2 l/ga); deltafos, 36 % e.k. (1,2 l/ga); karbofos, 50 % e.k. (1,5 l/ga).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alimuxamedov C.N., Adashkevich B.P., Adshov Z.K., Xodjaev Sh.T. /Biologicheskiy metod borby s glavneyshimi vreditelyami xlopchatnika. - Tashkent: Mexnat, 1986. -131s.
2. Bondarenko N.V., Asyakin B.P. Испытание эффективности gallitsa *Aphidoletes aphidimyza* Rond. V borbe tlyami v zimnykh teplitsax //Zapiski LSXI, 1975.- T.270.-S.29-33.
3. Turdieva, G. A., Kambarova, M. A., & Ergasheva, X. I. (2019). Primenenie gerbitsida Zeta v vyraщivanii ozimogo nuta. *Innovatsionnaya nauka*, (5).
4. Shukurov, X. X., Raxmonova, M. K., & Ergashova, X. I. (2023). NOKNING ZARARKUNANDASI NOK ShIRINChASI (Psylla pyri L) BIOEKOLOGIYASI VA ULARGA QARShI KURASH USULLARI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 6), 731-733.